XALQ DEPUTATLARI ASAKA TUMANI KENGASHI QARORI

Asaka tuman, Sohil bo'yi ko'chasi, 2-uy

2023 - yil 12 - may VI-53-33-1-17-K/23 Asaka tumani hokimligi

Asaka tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'larni yo'naltirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-,126-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Asaka tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'lar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining "2023-yil 1-chorak yakuni bilan shakllangan qo'shimcha mablag'larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo'yicha taklifi maqullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag'lar ajratilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.O'rinboyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (O.Ashurov) va g'aznachilik bo'linmasi (B.Xamrayev) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda yo'naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (X.Isroilov) mazkur qarorni matbuotda e'lon qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi B.Abdurasulov hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.O'rinboyev zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Q.Q.Qosimov**

Xalq deputatlari Asaka tuman
Kengashining
2023 yil 12 maydagi
VI-53-33-1-17-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi mahalliy byudjetining 2023-yil 1-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish

TAQSIMOTI

T/r	Sohalar nomi	Muassasalar nomi	Ish turi	Summasi (ming so‘mda)
1	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Temir daftarga (15%)	165245
2	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Ayollar daftariga (15%)	165245
3	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Yoshlar daftariga (15%)	165245
4	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Tashabbusli byudjet jamg‘armasiga (30%)	330490
5	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Matbuot xodimi ish haqi	11396

6	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Tashkiliy tadbirlar, moddiy texnik bazani yaxshilash, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida»gi 2023-yil 10-martdagi 3017-IV-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida»gi 2023-yil 14-martdagi SQ-702-IV-sonli qarorlari ijrosi	231279
7	Boshqaruv	Tuman hokimligi	Jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha hokim maslahatchilari ish haqi	32734
Jami:		**X**	**X**	**1101634.0**